

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

4

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



ISSN 2181 – 8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abduhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
I. Xaydarov	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Karimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdanzoda, G. Hushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Azizxonova S.</i> Azimiy hikmatlarining badiiy va ma'rifiy xususiyatlari.....	5
<i>Абдуганиева Н.</i> Сказки индонезии и их формульность	13
<i>Qalandarov M., Xushnazarova G.</i> Kamoliddin Husayn voiz Koshifiyning “Lub ul-bob-masnaviy” va Odina Eshon “miftoh ul-asror” asarlari tahlili.....	24
<i>Karimov N.</i> Li Munyol ijodida qaqnus qushi obrazi	33

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Begmatova B., Qurbonov S.</i> Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi.....	45
<i>Mirziyatov Sh.</i> “Muqaddamatu-l-adab” asari jahon Zamaxshariyshunoslari nigohida.....	56
<i>Abduvaliyeva Oʻ.</i> Afgʻoniston va Pokiston tilshunoslarining qoʻshma soʻzlar va kopulyativ qoʻshma soʻzlarga oid tadqiqotlari tahlili.....	64
<i>Axmedova C.</i> Семантическая классификация слова «любовь» в арабском языке	72
<i>Rasulova K.</i> Oybekning “Navoiy” romanidagi portret tavsiflarining tarjimalarda berilishi	82
<i>Jumaniyazov M.</i> Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e-rāb” asarida keltirilgan sheʼriy baytlar va maqollar	93
<i>Saidov U.</i> Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar..	108
<i>Saydumarova M.</i> “Oʻtkan kunlar” romanidagi nutqiy etiket birliklarining arab va ingliz tillariga tarjima qilish xususiyatlari haqida	121
<i>Abdullayeva N.</i> Dunyo tilshunosligida oʻzlashgan soʻzlar masalasi. Ularni oʻzlashtirish qoida va tamoyillari	134

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Faromarzi F.</i> Hofiz i Abru “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan qoʻlyozmasi haqida.....	144
<i>Dr. Korayem S.</i> Literary heritage of Ali-shir Nava'i: (A study on his influence and contribution to world civilization)	157
<i>Jumayev Gʻ.</i> Temuriylar davri manbalaridan “Osor al-vuzaro” asarining oʻrganilishi	171



XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT //
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА //
INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS

Saliyeva M. Zamonaviy axborot jamiyatida siyosiy kommunikatsiya	178
Sadibaqosev H. Zamonaviy global xavfsizlik tizimida AQSHning oʻrni: imkoniyatlar va muammolar	190
Ходжимуратова Д. «Велаят-е факих» как основа политической системы Ирана	201
Зарипова З. Опыт Японии в развитии системы среднего образования и достижения высоких показателей в рейтинге международной программы образовательных достижений учащихся средних школ PISA.....	210
Саудазимхужаева М. Вопросы к измерению и оценке эффективности «мягкой силы»	224



NURJAHON ABDULLAYEVA

Stajyor-o'qituvchi, TDSHU

Dunyo tilshunosligida o'zlashgan so'zlar masalasi. Ularni o'zlashtirish qoida va tamoyillari

Annotatsiya. Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida o'zlashma so'zlar masalasi, uning mohiyati va ahamiyati, tilshunoslar tomonidan o'rganilganligi, shuningdek, o'zlashma so'zlarning tilga kirib kelishi, o'zlashishi va o'zlashtirilishi borasidagi muayyan qoida va tamoyillar atroflicha tahlil qilinadi. Xususan, xalqaro tillar hisoblanuvchi ingliz va rus tillari leksik sathidagi o'zlashma so'zlar, ularning tilga kirib kelish va singish jarayonlari tadqiq ostiga olinadi. O'zlashmalarning ushbu tillar taraqqiyoti va rivojlanishi borasidagi ahamiyati, ijobiy va salbiy jihatlari atroflicha misollar orqali o'rganiladi, tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zlashma so'zlar, tilning lug'at sathi, muloqot fenomenlari, til sofliqi, ichki va tashqi manbalar, qarz so'zlar, yangi realiya, muqobil so'zlar (alternativalar), til genofondi, tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasi.

Абстракт. В данной статье подробно анализируется вопрос заимствованных слов в мировой лингвистике, его сущность и значение, изучаемые лингвистами, а также некоторые правила и принципы, касающиеся входа, усвоения и усвоения заимствованных слов в язык. В частности, изучаются заимствованные слова на лексическом уровне английского и русского языков, которые считаются международными языками, и процессы их внедрения и ассимиляции в язык. На подробных примерах изучаются и анализируются важность, положительные и отрицательные стороны приобретений с точки зрения прогресса и развития этих языков.

Ключевые слова: Собственные слова, словарный запас языка, явления общения, чистота языка, внутренние и внешние источники, заимствованные слова, новая реальность, альтернативные слова (альтернативы), языковой генофонд, уровень генетической и структурной близости языков.

Annotation. This article analyzes in detail the issue of borrowed words in world linguistics, its essence and meaning as studied by linguists, as well as some rules and principles regarding the entry, acquisition and assimilation of borrowed words into a language. In particular, borrowed words are studied at the lexical level of English and Russian, which are considered international languages, and the processes of their introduction and assimilation into the language. Using detailed examples, the importance, positive and negative aspects of acquisitions are studied and analyzed from the point of view of the progress and development of these languages.

Key words: Borrowed words, vocabulary of a language, communication phenomena, purity of language, internal and external sources, borrowed words, new reality, alternative words (alternatives), linguistic gene pool, level of genetic and structural similarity of languages.

Har bir til o'z taraqqiyoti davomida turli tillardan so'z oladi, ichki va tashqi manbalarga ko'ra boyiydi, lug'at sathi tadrijiy ravishda kengayib, takomillashadi va shunga ko'ra o'z iste'molchisiga lisoniy xilma-xillik va variativlikni taqdim qilish



salohiyatiga ega bo'lib boradi. Va bu har qanday rivojlanayotgan til uchun normal holatdir. Dunyoda biror til yo'qki, boshqa tillardan so'z olmagan, o'zlashmalar hisobiga o'z lug'at sathini boyitmagan bo'lsa.

“Ўзбек тили лексикологияси” kitobida mashhur tilshunoslardan L.P. Krisin, N.M. Shanskiy, A.V. Kalinin, M.I. Fomina, V.V. Akulenko va N. Sharopovlarning ishlariga tayangan holda so'z o'zlashtirish tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: “O'zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma'lum til elementlarining ko'chishi, kirishidir”¹. M. D. Stepanov va I. I. Chernishevlar esa so'zlarning o'zlashishi deb², bir tildagi so'zning ikkinchi tilga kirib kelishini, ularning o'zlashish natijasi va ushbu jarayonning umumiy majmuini tushunadilar³. Ma'lumki, chet tilidan kirib kelgan har bir yangi so'z tabiiy ravishda o'zlashayotgan tilning fonetik, orfografik, grammatik chig'irig'idan o'tadi. Bunda so'z o'qilishi, yozilishi va tuzilishi bo'yicha o'zlashayotgan tilning muayyan qonuniyatlari ta'siri ostida qator o'zgarishlarni boshidan kechiradi, qaysidir ma'noda qabul qilinayotgan til tizimi qonuniyatlari, mazkur til tabiatiga ma'lum darajada bo'ysunishiga to'g'ri keladi. Bunda o'zlashgan so'zlar aslidan farqlanishi, talaffuzi, imlosi tamomila tafovutlanishi ham mumkin. O'zbek tilshunosligida ushbu xususiyatlar turlicha tasniflanadi. Manbalarga⁴ asosan so'z o'zlashish jarayonida quyidagi 7 xususiyat namoyon bo'lishi lozim:

1. O'zlashma so'z uni qabul qilgan tilning praktik yozuv xususiyatlariga moslashgan bo'lishi.
2. Chet so'z o'zlashtiruvchi til grammatik sinflari, kategoriyalariga mos kelishi.
3. So'z uni qabul qilgan tilda qayta fonetik shakllanishi.
4. Chet so'z uni qabul qiluvchi tilga grammatik singishi.
5. Chet so'z uni qabul qiluvchi til so'z yasash sistemasida faol ishtirok etishi.
6. Chet so'z uni qabul qilgan tilga semantik jihatdan singishi:

¹ “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – 6.83.

² Muallif izohi: manbada “so'zlarning assimilyatsiyasi” atamasi ostida kelgan.

³ Kosimova M. “The history of word borrowing process in the uzbek and english languages”// Proceedings of Online International Conference on Advances in Scientific Research and Developments Organized by Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581–4230, Website: journalnx.com, August 8th, 2020, – P. 105.

⁴ Muallif izohi: aslida, ushbu ma'lumotlarni yozishda xalqaro va respublika miqyosidagi jurnal va konferensiya to'plamlarida chop etilgan qator maqolalarga murojaat qilingan edi. Xususan, E.Xolmatova va M. Amonovlarning “O'zlashma so'zlarning o'rganilishining tarixi va shu yo'nalishda ish olib borgan olimlar” nomli

<https://in-academy.uz/index.php/yo/article/view/13435/9401>;

U.Qodirovaning “O'zbek tilida so'z o'zlashuvi masalalarining o'rganilishi tarixi” nomli <https://wordlyknowledge.uz/index.php/PPSM/article/download/2733/4096/5069> maqolalarga. Ammo izlanishlarimiz natijasida ushbu maqolalarning 1981-yilda chop etilgan “Ўзбек тили лексикологияси” kitobidan asl manbani ko'rsatmasdan olinganligining guvohi bo'lgach, ma'lumotning asl manbasini keltirishni ilmiy etiket nuqtayi nazaridan to'g'ri deb topdik.



- a) o'zlashma so'z ma'nosi aniq bo'lishi;
 - b) o'zlashma so'z ma'nosi uni qabul qilgan tilda differensiatsiya qilingan bo'lishi.
7. Chet so'z uni qabul qilgan tilda uzluksiz ishlatilishi kerak¹.

“Ўзбек тили лексикологияси” (1981-yilgi nashr) kitobida mualliflar so'z o'zlashayotgan tilga kirgan bo'lishi, ya'ni o'sha tilga singishi uchun quyidagi xususiyatlarni o'zida namoyon qilishi kerakligini aytadilar.

Bular:

1. O'zlashgan so'z uni qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo'ysunadi.
2. So'z qabul qiluvchi til leksik-semantik sistemasiga bog'langan, unga singishgan bo'ladi.
3. O'zlashgan so'z xuddi o'z so'zdek tabiiy va aniq bo'ladi, undan shubhalanish, uni boshqa so'zlar bilan qorishtirish xavfi yo'qoladi.
4. So'z qabul qiluvchi til egasi bo'lgan xalqqa xuddi o'z so'zidek tuyuladi. Uning yot element ekanligi sezilmaydi.
5. So'z o'zlashgan bo'lsa, bu so'zning tildan tezda chiqib ketish ehtimoli bo'lmaydi. Bunday so'zning “keraksizligi” haqida, uni tildan “chiqarish” haqida o'rinsiz munozaralar bo'lmaydi va boshqalar².

Aynan ushbu fikr e'tibor qaratishimiz lozim bo'lgan eng muhim nuqtadir. Demak, muallifning fikriga ko'ra, tilga allaqachon singib ketgan, til mulkiga aylangan, tilning ichki qonuniyatlariga bo'ysungan so'zlarga “o'zlashma so'zlar” deyiladi va bunday so'zlarni yot so'z sifatida farqlash, uning tildagi muqobilini topish, uni tilning milliyligiga rahna soluvchi yot unsur sifatida lug'at sathidan chiqarish zaruriyati tug'ilmaydi.

Lekin shu o'rinda savol tug'iladi, o'zlashmalar tilning ichki qonuniyatiga batamom bo'ysunadi deyilganda nima nazarda tutilmoqda? Turkiy tillar qonuniyatiga qaraydigan bo'lsak, so'z boshida qator undoshlar kelishi mumkin emas. Vaholanki, *stakan*, *stol*, *stul*, *skotch*, *trolleybus*, *tramvay*, *traktor*, *krossovka*, *proroktor*, *professor*, *programma*, *grafika*, *grant*, *skripka*, *klassika* va h.k. kabi bir necha yuzlab o'zlashma so'zlar borki, bu qonuniyatga bo'ysungan bo'lsin. Umumturkiy tillar uchun eng xos jihat bo'lgan singarmonizm hodisasi, aynan shu “quloqsiz” o'zlashmalar hisobiga bugun deyarli tilimizda o'z aksini topolmayapti, bizningcha. Shunday ekan, olimning ushbu fikrlari biroz so'roq ostida turibdi, deb ayta olamiz.

Rus tilshunosligida o'zlashgan so'zlar tushunchasi “*заимствование*”, ya'ni “*qarz olish*, *o'zlashtirish*” atamasi otida keladi va rus tilidagi “qarz so'zlar” rus adabiy tilining lug'at tarkibini to'ldirish vositasi sifatida, shuningdek, yangi obyekt va hodisalarni nomlash uchun ishlatilishi mumkinligi aytiladi³.

¹ “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – 6.85.

² “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – 6.84.

³ Дай И. “Займствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-



“Лингвистик энциклопедик луғат”да “so‘z o‘zlashtirish” tushunchasining ta’rifi quyidagicha keltiriladi: so‘z o‘zlashtirish – bu “chet tilining elementi (so‘z, morfema, sintaktik qurilma va boshqalar)ning bir tildan ikkinchi bir tilga til aloqalari natijasida ko‘chishidir, shuningdek, bir til elementlarining boshqa bir tilga o‘tish jarayoni hamdir”¹ deyiladi.

“Лингвистик атамалар луғати”да esa so‘z o‘zlashtirishning quyidagi ta’rifini uchratish mumkin: “Bu fransuz atamasi bo‘lib, bir tilning boshqa tilning elementini olish harakatini ham, olingan elementning o‘zini ham anglatadi. So‘z o‘zlashtirish og‘zaki – eshitish yoki fonetik so‘z o‘zlashtirish yoki yozma – kitob yoki grafik so‘z o‘zlashtirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Leksik so‘z o‘zlashtirish (o‘zlashtirish) eng keng tarqalgan usul bo‘lib, sintaksisdagi, shuningdek, fleksiya va talaffuzdagi bilvosita o‘zlashtirish kamdan-kam uchraydigan va biroz bahsli hodisadir”².

Ushbu ta’riflarga asoslanib, shunday xulosa qilishimiz mumkinki, so‘z o‘zlashtirish – bu iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa turdagi o‘zaro aloqalar natijasida bir tildan boshqa bir tilga til elementlarining ko‘chishidir. O‘zlashtirish og‘zaki yoki yozma ravishda amalga oshirilishi mumkin. Leksema o‘zi o‘zlashayotgan tilga kirib borgach, uning fonetik tuzilishiga, morfologik va grammatik tizimiga moslashib, leksik-semantik ishlovdan o‘tadi. Boshqa tillardan nafaqat alohida so‘zlar, balki sintaktik va frazeologik iboralarni ham o‘zlashtirish mumkin.

O‘zlashmaning nutqda keng qo‘llanishi, ayniqsa, kollektiv nutqda qo‘llanishi prinsipial belgilardan biridir. So‘z kollektiv nutqda ishlatilmasa, kollektiv tomonidan tan olinmasa, U norma bo‘la olmaydi. Norma bo‘lmagan so‘zni o‘zlashma deb hisoblash mumkin emas³:

Avvalo, olinma so‘zlar va neologizmlarni o‘zlashma so‘zlardan farqlab olish lozim. Olinma so‘zlar, shuningdek, yangilik bo‘yog‘i sezilib turuvchi, fan-taraqqiyotning yangi sohalari va kashfiyotlari sabab til sathiga kirib keluvchi yangi so‘zlar (neologizmlar) har doim ham o‘zlashma so‘z bo‘lavermaydi. U qachonki, til iste’molchilari tomonidan birdek ma’qullanib, jamoaviy bir tarzda qo‘llanila boshlangach, jamiyat tomonidan muayyan vaqt ichida uzluksiz ravishda qo‘llanilsagina, u o‘zlashgan so‘z maqomini oladi.

O‘zlashmalar xususiyatlari va ularning o‘zlashayotgan tilga qabul qilinib, unda mustahkam o‘rnashib, singishib ketishi borasidagi talablar tilshunoslar tomonidan deyarli yakdil bir tarzda ifodalanganligining guvohi bo‘lish mumkin. Ammo chet so‘zlarning ular o‘zlashgan tillarda nomlanishi, differentsiatsiya qilinishi, terminologik

zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya, – С. 1–2.

¹ В.Н. Ярцева. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. –М.: Сов. энциклопедия, 1990. – С. 685.

² Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов: Пер. с фр./ Предисл. В.А.Звегинцева. М.: Едиториал УРСС, 2004. – С. 104.

³ “Ўзбек тили лексикологияси”. Дарслик. “Фан” нашриёти. – Тошкент: 1981, – б.85.



birliklarning qoʻllanilishi nazarda tutilib, ushbu obyektiv va zaruriy omil oʻrganiladigan boʻlinsa, shu paytgacha qilingan ishlarda chet soʻzlar turlicha terminlar, differensiatsiyalar ostida tahlil qilinganini koʻrishimiz mumkin.

Bugun biz kundalik hayotimizda va odamlar bilan oʻzaro muloqotimiz jarayonida juda koʻplab, zamonaviy fan kashfiyotlar va texnologiyalar nomlaridan foydalanamiz. Tabiiyki, bu texnologiyalarning aksariyatini chet tili soʻzlari tashkil qiladi. Bu paytda esa biz albatta oʻzlashma soʻzlarni qoʻllashga majbur boʻlamiz. Maʼlumki, har bir tilning lugʻat tarkibi boyib borishining bir qancha yoʻllari mavjud. Ana shunday yoʻllarning biri bu boshqa tillardan soʻzlar oʻzlashishidir. Bugungi kunda bu jarayonni boshidan oʻtkazmagan, faqat ichki imkoniyatlari bilan rivojlangan til mavjud emas. Maʼlum bir tilning hozirgi davr rivojida, avvalo, boshqa davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar, fan-texnika taraqqiyoti asosida boshqa bir tilga tegishli boʻlgan soʻzlar oʻzlashishi kuzatilmoqda. Har bir tilning oʻz rivojlanish tarixi mavjud va bu jarayonda boshqa tillardan soʻzlarning kirib kelishi kuzatilgan. Mana shunday jarayonlarda jahon tillariga yangi soʻzlarning kirib kelishi oʻsha tillarning lugʻati tarkibi boyishidan dalolat beradi. Jahon tilshunosligida tilning lugʻat tarkibining boyib borishining bir qancha yoʻllari mavjud.

1. Yangi soʻzlar yasalihi orqali (*soʻz yasalihi*).
2. Boshqa tillardan soʻz kirib kelishi orqali (*oʻzlashmalar*).
3. Mavjud soʻzlarning maʼnosi oʻzgarishi orqali (*maʼno koʻchishi*).
4. Frazologik birikmalarning yasalihi orqali (*frazologizmlar*).

Bundan koʻrinib turibdiki, soʻzlarning boshqa tillardan kirib kelishi lugʻat tarkibini boyishida muhim rol oʻynaydi. Oʻzlashmalar shunday jarayonni anglatadiki, unda soʻzlarning bir qismi yoki butun fraza boʻlgan soʻzlar oʻzi boshqa tildan boshqasiga koʻchib oʻtadi. Bunday soʻzlarning tilshunoslikda uchrashi, bir tomondan, “muloqot fenomenlarida”, yaʼni biron, bir xalqning uzoq vaqtlar davomida til va madaniy aloqalarida koʻrinsa, ikkinchi tomondan, avlodlarning davomiy muhim iqtisodiy va madaniy guruhlariga qarab intilishida yoki ularning hududiy chegarada ikki yoki koʻp tilligida koʻrinadi.

Ingliz tilida soʻz oʻzlashuvi xususiyati. XV asrda ingliz tili qoʻlyozmalarida uni boshqa bir necha tillar, xususan, lotin tili, fransuz va eski skandinavian tillari bilan aloqada boʻlganligi haqida yozilgan. Bu manbalardan soʻz qoʻshilishi bir necha tarixiy sabablardan dalolat beradi. Rim sivilizatsiyasining katta taʼsiri tufayli lotin tili Angliyada taʼlim va din tili sifatida uzoq vaqt foydalanilgan. Eski skandinavian tili IX–X asrlar va XI asrning birinchi yarmida mahalliy aholiga tezda singishib ketgan, shuningdek, oʻzlari bilan ilgʻor feodalizm, yaʼni yuqori ijtimoiy tizim haqidagi yangi tushunchalarni olib kelgan mustamlakachilar tili edi.

Boshqa mustamlakachilarning tili boʻlgan fransuz tili XI asrning oʻrtalaridan XIV asrning oxirigacha yuqori tabaqa vakillari, maktab taʼlimi va rasmiy hujjatlarning asosiy tili edi. Ingliz tilida oʻzlashma elementlarni oʻrganishda asosiy urgʻu oʻrta asrlar



ingliz davrida mavjud bo'lgan qoidaga asoslandi. Keyingi davrlarda o'zlashmalar faqat yaqin yillardagi tadqiqotlarning maqsadi bo'ldi. O'zlashmalar oqimi uzluksiz va davomli bo'ldi. O'zlashmalarning eng katta miqdori fransuz tilidan kirib kelgan. Ular ijtimoiy-siyosiy, ilmiy va madaniy hayotdagi turli sohalarni tasvirlaydi.

O'zlashmalarning katta qismi ilmiy va texnik atamalardir. Ko'pchilik o'zlashma so'zlar odamlar o'rtasidagi aloqalar va ularning madaniyat darajasi haqida bizga xabar beradi. U shunga sabab bo'ladiki, o'zlashmalar tez-tez tarixning muhim hodisasi deb nomlanadi. Agar biz ingliz tilidagi o'zlashmalar ro'yxatini tekshirsak, ular ma'nosiga qarab guruhlanadi, shunda biz Angliyaning boshqa millatlar bilan aloqasi haqida ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni qo'lga kiritamiz. Ba'zi bir o'zlashmalar aniq tarixiy holatlarning to'g'ri ta'sirini tushuntirib bera olmaydi, ular yangi narsa va g'oya bo'la olmaydi. Masalan, *air* – *havo*, *place* – *joy*, *brave* – *jasur* so'zlari fransuz tilidan o'zlashgan. Shuni ta'kidlash kerakki, sof lingvistik xususiyatlarni ahamiyatli darajalari bilan o'rganilgan turli tillardan o'zlashmaning umumiy tarixiy sabablari haligacha tadqiq qilinmoqda.

Ko'pgina o'zlashmalar faqat tarixiy hodisaga bog'liq emas, balki aloqa-munozabatlar xarakterining davomiyligi, shuningdek, tillarning irsiy va strukturaviy yaqinlik darajasiga aloqador. Tillar qanchalik yaqin va aniq bo'lsa, ta'sir shunchalik chuqur bo'ladi. Ingliz tilida skandinavian va fransuz tili o'rtasidagi ta'sirni taqqoslash yaxshi baholangan. Eski ingliz tiliga yaqindan bog'langan skandinavian tillarini ta'siri ostida ba'zi guruh so'zlari bog'langan yoki bog'lanmagan tillardan o'zlashgan (*they*, *their*, *them* kabi olmoshlar); bir qancha skandinavian o'zlashmalari milliy so'zlardan yasalgandek tuyuladi (ularning o'zagi bir xil bo'lganligi uchun ular o'rtasidagi bog'liqlik osonlik bilan ko'rinadi), masalan, *drop* – *drip* (*scand*), *true* – *tryst* (*scand*); ingliz tilining grammatik tuzilishining rivojlanishida skandinavian so'zlarining ta'sir darajasi tezlashdi.

O'zlashmalar tilga ikki yo'l orqali kirib keladi: og'zaki nutq orqali (odamlar o'rtasidagi tez aloqa orqali) va yozma nutq orqali (kitoblar orasidagi bilvosita aloqa orqali). Og'zaki o'zlashmalar asosan tarixning dastlabki davrlarida sodir bo'lgan. Yaqin yillarda yozma o'zlashmalar muhim ahamiyat kasb etdi, og'zaki o'zlashgan so'zlar, odatda, qisqa bo'ladi (*inch*, *mill*, *street*) va ular foydalanish jarayonida katta o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Yozma o'zlashmalar o'zlarining talaffuzi, tovush shakllarining ba'zi xususiyatlarini saqlab qoladi va ularning assimillatsiyasi uzoq va qiyin jarayondir¹.

Rus tilida so'z o'zlashuvi xususiyati.

So'z o'zlashtirish rus tilida juda keng tarqalgan hodisadir. Uzoq vaqtlar mobaynida yangi hodisa va tushuncha nomlarini bildiruvchi chet so'zlar rus tiliga kirib, lug'atda muhim qatlamni tashkil etib bordi. Manbalarda rus tili lug'at tarkibidagi ilk xorijiy so'zlar eng qadimgi yozma yodgorliklarda qayd etilgani va yunon tiliga mansub

¹ Ermetova J, Bahodirova F. "Leksikologiya fanidan o'quv-uslubiy majmua" Urganch. 2014. – B. 114.



bo'lganligi aytiladi. Chet tillaridan qabul qilingan (o'zlashgan) so'zlar doimiy ravishda adabiy matnlarda, ommaviy axborot vositalarida va turli matbuot nashrlarida uchraydi. Shuningdek, ushbu so'zlar zamonaviy yoshlar slengi va professional lug'atning ajralmas qismidir. Zamonaviy rus tilida, ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, o'zlashgan so'zlarning ulushi 4% dan 22% gacha yetadi¹.

M.A.Breiter o'z tadqiqotida chet tillaridan olingan so'zlarning paydo bo'lishining quyidagi sabablarini ta'kidlab o'tadi:

- rus tilida yangi tushuncha nomining yo'qligi (yangi realiya): *спонсор, дайджест, топ модел* va boshqalar;
- rus tilining kognitiv bazasida tegishli nomning yo'qligi: *бренд, сканер, ноутбук* va boshqalar;
- stilistik ta'sirni ta'minlash zaruriyati;
- ilgari olmoshlar yordamida ifodalangan tushuncha (konsepsiya)ni yangi chet tilidagi so'z bilan almashtirish: *reyting – kompaniyaning o'ziga xos turdagi ro'yxatdagi o'rni*².

L.P.Krisinning ta'kidlashicha, so'z o'zlashtirish bir qator tashqi va ichki sabablarga ko'ra kechadigan murakkab jarayondir. Turli xalqlar o'rtasidagi yaqin ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni olim tashqi sabab sifatida keltiradi.

L.P. Krisin tomonidan chet tildan o'zlashgan so'zlarning paydo bo'lishining ichki sabablari quyidagicha izohlanadi:

- tushunchani yanada oydinlashtirish, ma'noviy tuslanish (semantik ottenka)larni farqlash, tushunchaning semantik tuzilishini soddalashtirish;
- so'z oluvchi tilda tuzilish jihatdan o'xshash so'zlarning mavjudligi;
- ifodalanayotgan tushunchaning bo'linmasligi bilan belgining bo'linmasligiga moslashish tendensiyasi³.

Rus tilidagi birinchi o'zlashmalar VIII–XII asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, slavyan bo'lmagan tillardan, xususan, skandinaviya (*вира, ябеда, клеймо, тун, варяг, кнут, канерство*), fin-ugor (*навага, салака, акула, сиз, пурга, пельмени*) tillaridan kirgan edi. Ushbu o'zlashmalarning aksariyati dengizchilik, baliqchilik va savdo aloqalari, shuningdek, shimoliy xalqlar turmushining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va bevosita davrning ijtimoiy-madaniy hayotini aks ettirgan.

Oltin O'rda davri ta'siri rus tiliga turkiy so'zlarning jadal ravishda kirib kelishiga yordam berdi: xususan, *тюрьма, хан, башка, казна, караул* va h.k. so'zlar kirib keldi.

¹ Дай И. “Займствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования”/https://na-journal.ru/1-2023-filologiya-lingvistika/4138-zaimstvovaniya-v-sovremennom-russkom-yazyke-istoriya-poyavleniya-prichiny-problemy-i-primery-ispolzovaniya, – С 3.

² Брейтер, М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-ру-систов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 33.

³ Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 27–34.



Turkiy soʻzlarning aksariyati rus tiliga shu darajada mustahkam kirib borganki, bugungi kunga kelib ular xorijiy soʻz sifatida qabul qilinmaydi ham hatto.

Pan-slavyan birligi davrida yunon tilidan (gresizm) soʻzlar rus tiliga faol kirib kela boshlagan. Shunday qilib, uy-roʻzgʻor buyumlarining baʼzi nomlari: *скатерть, фонарь, тетрадь, сахар*; diniy mazmundagi soʻzlar: *лампада, демон, икона, ангел, епископ* va boshqalar; ayrim ilmiy atamalar: *грамматика, алфавит, философия, математика, диалект* va boshqalar; hayvon va oʻsimliklarning nomlari: *свёкла, фасоль, буйвол* va shu kabi boshqa soʻzlar yunon tilidan olingan. Keyinchalik yunon tilidan olingan oʻzlashmalar, asosan, fan va sanʼat sohasida (*логика, комедия, аналогия, хорей, психология, лексикон* va boshqalar) qoʻllanilgan¹.

Keyingi davrlarda esa lotin soʻzlari (lotinizmlar) rus tiliga katta taʼsir koʻrsatdi. Lotin soʻzlarining rus tiliga kirib borishi XVII asrdan boshlab qayd etilgan. Aksariyat lotinizmlar hayotning huquqiy, siyosiy va tibbiy sohalar bilan bogʻliq edi: *диктатура, республика, революция, конституция, зоология, медицина* va boshqalar shular jumlasidandir.

Rus tilining leksik tarkibiga Yevropa tillari ham sezilarli taʼsir koʻrsatdi, bu ayniqsa, XVIII asrda Pyotr I davrida sezilarli darajada boʻldi. Bunga sabab aynan shu davrdan boshlab jamiyatning turli sohalarida ilm-fanning faol rivojlanganligi va koʻplab yangi kashfiyot va islohotlarning jadal surʼat olganligida edi. Bu esa, oʻz navbatida, rus tilining leksik tarkibini yanada boyitishga yordam berdi. Xususan:

- nemis tilidan olingan soʻzlar: *прейскурант, бухгалтер, агент, лагерь, вексель, офицер, штраф* va boshqalar;
- golland tilidan olingan soʻzlar: *флот, флаг, рейд* va boshqalar;
- ingliz tilidan olingan soʻzlar: *мичман, ихуна, баржа, бриг* va boshqalar;
- fransuz tilidan olingan soʻzlar: *аксесуар, жабо, вуаль, беже, пюре, майонез, гурман, бисквит* va boshqalar;
- italyan tilidan olingan soʻzlar: *браво, аллегро, пианино, вилла, макароны* va boshqalar;
- ispan tilidan olingan soʻzlar: *серенада, гитара, мантилья* va boshqalar.

XX asrda fan, texnika, madaniyat, iqtisodiyot va ishlab chiqarish munosabatlariga oid xorijiy soʻzlar rus tilining leksik tarkibiga mustahkam kirdi: *анархизм, буржуазия, демократ, социалист, космонавт, губернатор, планетарий* va boshqalar shular jumlasidandir.

XX–XXI asrlar oxirida oʻz ona tilida soʻzlashuvchilar nutqida begona tildagi oʻzlashmalar sonining koʻpayishiga sabab boʻluvchi qator omillar, jumladan: mamlakatlar oʻrtasidagi savdo va madaniy aloqalarning koʻpayishi, xorijiy turizmning gullab-yashnashi, fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi, kino sanoati va musiqa madaniyati ommalashishi kabi holatlar yanada jadallashdi. Bu davr juda koʻp

¹ Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.



professional (*printer, fayl, interfeys, dizayn, biznesmen* va boshqalar), iqtisodiy (*супермаркет, тендер, трейдер, менеджер, билборд* va boshqalar), sport (*бейсбол, бита, виндсёрфинг, армрестлинг* va boshqalar) atamalar. XX asrdagi barcha o'zlashmalarning to'rtidan uch qismidan ko'prog'i anglitsizmlar va amerikanizmlardan kelgan¹.

XXI asrda biz kompyuter texnologiyalari va Internet rivojlanishi bilan bog'liq yangi xorijiy tillar, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar: *блогер, ангрейд, логин, чат, роуминг, хакер, таргет, гуглит, дедлайн, фейк, коуч, копирайтер* va boshqalar.

Ko'pgina o'zlashtirilgan so'zlar rus tilining leksik tarkibiga uzoq va mustahkam kirgan, shuning uchun uning so'zlovchilari tomonidan xorijiy sifatida qabul qilinmaydi, masalan: *враг, время, сахар, шоколад, танк, модель, кенгуру, спутник* va boshqalar. Ularning aksariyati ko'rsatilgan tushunchalarni (yoki hodisalarni) ifodalovchi yagona so'zlardir. Shuni ta'kidlash kerakki, qarzga olingan so'zlar orasida nafaqat chet ellik sifatida qabul qilinadigan, balki ularning ma'nosi rus tilida so'zlashuvchilar uchun har doim ham tushunarli bo'lmagan ko'plab so'zlar mavjud, masalan: *генезис, квота, эксклюзивный, оффшор, саммит, холдинг* va boshqalar.

Ko'p sonli xorijiy so'zlarning rus tiliga kirib borishi ham tilshunoslar, ham ona tilida so'zlashuvchilarni tashvishga solmoqda. Bu nutqda o'zlashmalarni qo'llash har doim ham o'rinli emasligi bilan izohlanadi. Ularning ko'pchiligi haqiqiy so'zlar va iboralarni almashtiradi va keraksiz ishlatadi. Bu muammo, ayniqsa, yoshlar orasida keskin. Yoshlar yangi xorijiy so'zlarni tezda o'zlashtirib olishadi va ularni kundalik nutqda doimiy ravishda ishlatishni boshlaydilar, garchi rus tilida bu so'zlarning sinonimlari mavjud va bu holatlarda qarz olish mutlaqo oqlanmasa ham. Masalan, *меседж (message) – сообщение; уикенд (weekend) – выходной; кринж (cringe) – стесняться, смущаться, испытывать неловкость, «испанский стыд»; краш (crush) – любимый, возлюбленный; лол (lol) – смех, смеиной, ха-ха-ха, бугага; дэнсить (dance) – танцевать; фейк (fake) – подделка, фальшивка; тренд (trend) – тенденция, направление.*

Shunday qilib, xorijiy so'zlarni olish jarayoni rus va ingliz tilining butun tarixiy rivojlanishi davomida doimiy ravishda sodir bo'lishini ko'rish mumkin. So'nggi o'n yilliklarda so'z o'zlashtirish quyidagi sohalarda, ayniqsa, faol qo'llanilmoqda: siyosat, iqtisodiyot, texnologiya va ommaviy madaniyat. Xorijiy so'zlarni ishlatganda, ona tilida so'zlashuvchilar nutq xatolariga yo'l qo'ymaslik uchun ularning leksik ma'nosi va stilistik ranglanishini hisobga olishlari kerak. Shuni ta'kidlash kerakki, xorijiy so'zlarni qo'llash ona tilida nomlanayotgan yangi konsepsiya uchun nom bo'lmagandagina o'rinli bo'lishi kerak. Ona tilining o'ziga xosligi va sofligini saqlab qolish uchun asossiz so'z o'zlashtirishdan qochish lozim.

¹ Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304–307.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Ermetova J, Bahodirova F. "Leksikologiya fanidan o'quv-uslubiy majmua" Urganch. 2014. – B. 114.
2. Дай И. "Заемствования в современном русском языке: история появления, причины, проблемы и примеры использования"/<https://na-journal.ru/1-2023>. – С. 8.
3. Брейтер, М. А. Англицизмы в русском языке: история и перспективы. Пособие для иностранных студентов-русистов. Владивосток: Изд-во Диалог, 2011. – С. 33.
4. Kosimova M. "The history of word borrowing process in the uzbek and english languages"// Proceedings of Online International Conference on Advances in Scientific Research and Developments Organized by Novateur Publications, Pune, Maharashtra, India. JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal. ISSN: 2581-4230, Website: journalnx.com, August 8th, 2020, – P. 105.
5. Крысин Л.П. Лексическое заимствование и калькирование в русском языке последних десятилетий. Вопросы языкознания. 2002. № 6. – С. 27–34.
6. Вартоломей Т.Т. Причины возникновения иноязычных заимствований в русском языке. Молодой ученый, 2022. №28 (423). – С. 199.
7. Гинза Д.И. Английские заимствования в русском языке. Бюллетень науки и практики. № 4. 2017. – С. 304–307.
8. "Ўзбек тили лексикологияси". Дарслик. "Фан" нашриёти. – Тошкент: 1981, – Б. 476.